



**SYSTEM OF TAXATION OF PROPERTY OF INDIVIDUALS AND
FOREIGN EXPERIENCE**

Soporboyev Narimon Yusufboyevich

A student at the Banking and Finance Academy

e-mail: soporboyevnorimonbek@gmail.com

Tel: 99-968-92-49

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and practical aspects of the property taxation system of individuals. The study examines the economic essence of property tax, its role in forming state budget revenues, and its importance in tax policy. The current state of property taxation of individuals in Uzbekistan is analyzed based on the provisions of the Tax Code and official data from the State Tax Committee.

The article also studies the experience of developed countries such as the United States, Germany, and the United Kingdom in the field of property taxation. Their specific features and effectiveness are analyzed, and the possibilities of applying foreign experience in the conditions of Uzbekistan are considered.

The research results indicate that improving the property taxation system for individuals requires the development of digital tax administration, improvement of the mechanism for determining the market value of real estate objects, and enhancement of interaction with taxpayers. The effective organization of property taxation contributes to increasing state budget revenues and ensuring economic stability.

Keywords: property tax, tax system, individuals, state budget, tax policy, tax administration, foreign experience.

**JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLIQ SOLISH TIZIMI VA
XORIJ TAJRIBASI**

Soporboyev Narimon Yusufboyevich

Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solish tizimining nazariy asoslari hamda amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati, uning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni hamda soliq siyosatidagi ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solish tizimining amaldagi holati Soliq kodeksi hamda Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Maqolada rivojlangan davlatlar, jumladan AQSH, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda mol-mulk solig'ini undirish amaliyoti o'rganilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari va samaradorligi tahlil qilingan. Xorij tajribasini o'rganish orqali ushbu tizimni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solish tizimini takomillashtirish uchun soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, ko'chmas mulk obyektlarining bozor qiymatini aniqlash mexanizmini rivojlantirish hamda soliq to'lovchilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mol-mulk solig'i, soliq tizimi, jismoniy shaxslar, davlat byudjeti, soliq siyosati, soliq ma'muriyatchiligi, xorij tajribasi.

Asosiy qism: Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjetining asosiy daromad manbalari dan biri soliqlar hisoblanadi. Soliq tizimi davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda ijtimoiy sohani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solish tizimi davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida tartibga solinadi. Soliq kodeksida soliqlarni belgilash, hisoblash va undirish tartibi, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari hamda soliq nazoratining asosiy mexanizmlari belgilab berilgan. Ushbu kodeksga muvofiq jismoniy shaxslarning





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

mol-mulkiga soliq solish ko'chmas mulk obyektlarining kadastr qiymati asosida hisoblanadi. Soliq kodeksiga ko'ra jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solish obyekt sifatida fuqarolarga tegishli uy-joylar, kvartiralar, bog' hovlilari, garajlar hamda boshqa ko'chmas mulk obyektlari e'tirof etiladi. Mazkur soliq turi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi hamda mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini va erkinlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda soliq tizimini modernizatsiya qilish hamda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Elektron soliq xizmatlari, raqamli hisob-kitob tizimlari hamda onlayn soliq to'lov platformalarining joriy etilishi soliq tizimi samaradorligini va soliq tushumlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Jahon amaliyotida mol-mulk solig'i mahalliy byudjetlarning muhim daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda mol-mulk solig'i infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim tizimini moliyalashtirish hamda ijtimoiy xizmatlarni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

AQSH tajribasida mol-mulk solig'i asosan mahalliy hokimiyat organlari tomonidan undiriladi. Soliq stavkasi ko'chmas mulkning bozor qiymatiga qarab belgilanadi. Ushbu tizim mahalliy budjetlarni mustahkamlash hamda hududiy uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlashda va budjet tushumlari samarali hisoblanadi.

Germaniyada mol-mulk solig'i ko'chmas mulkning qiymati va uning joylashgan hududiga qarab hisoblanadi. Germaniya tajribasi soliq tizimining shaffofligi va samarali soliq ma'muriyatchiligi soliq tushumlarini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Buyuk Britaniyada mol-mulk solig'i Council Tax nomi bilan yuritiladi. Bu soliq uy-joy qiymatiga qarab turli toifalarga ajratilgan holda undiriladi. Natijada soliq tizimi soliq to'lovchilar uchun nisbatan adolatli va qonuniy shaklda tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham mol-mulk solig'i tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Ko'chmas mulk obyektlarining kadastr qiymatini aniqlash





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

tizimini modernizatsiya qilish hamda soliq bazasini kengaytirish orqali soliq tushumlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish orqali soliq tushumlarini oshirish, soliq nazoratini kuchaytirish hamda soliq to'lovchilar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari va suniy intellektlar keng joriy etilmoqda.

Xulosa: O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solish tizimi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu soliq turi nafaqat fiskal vazifani bajaradi, balki iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantiradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

1. Mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulkning bozor qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish;
2. Soliq ma'muriyatchiligini to'liq raqamlashtirish orqali soliq tushumlarini oshirish;
3. Soliq to'lovchilar uchun elektron xizmatlar va axborot platformalarini kengaytirish;
4. Xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish asosida soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish;
5. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish maqsadida mol-mulk solig'i tushumlaridan samarali foydalanish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solish tizimini yanada takomillashtirishga hamda davlat byudjeti daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
2. Vahobov A.V., Jo'rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. – Toshkent, 2009.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari.
4. <https://lex.uz>
5. <https://stat.uz>

